

Ijtimoiy pedagogikada meyordan og'ishgan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari metodlari va vositalari

Yulduz Xoliqova

Dildora Gayirova

Ilmiy rahbar: S.Xaydarov

TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada meyordan og'gan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari va metodlar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bola, ota-ona, jamiyat, maktab, me'yordan og'ish

Methods and means of working with deviant teenagers in social pedagogy

Yulduz Khalikova

Dildora Gayirova

Scientific supervisor: S.Khaidarov

TMC Institute

Abstract: This article presents ideas about forms and methods of working with deviant adolescents.

Keywords: child, parents, society, school, deviation from the norm

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. O'smirda o'zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a'zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning hatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi o'zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O'smirlarda o'zini anglash yangi bosqichga ko'tarilgach, ular o'ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O'quvchi o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining hatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi.

Xulqi og'ishlikni yuzaga keltirishi mumkin omillar:

Ijtimoiy omillar:

❖ erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalaridan qochish;

- ❖ qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik;
- ❖ o‘z (men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik;
- ❖ ota-ona xulq-atvoridan uyalish;
- ❖ ijtimoiy tartib qoidalarini buzish;
- ❖ huquqbuzarlik, bezorilik;
- ❖ mayda o‘g‘irlik;
- ❖ fohishalik;
- ❖ giyohvand moddalarni iste‘mol qilish;
- ❖ kam ta‘minlanganlik, ota-onalarning ishsizligi;
- ❖ bola hayotida ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qiyin vaziyatlarga tushishi;
- ❖ jamiyat tuzilmasi;
- ❖ ijtimoiy institutlar;
- ❖ turmush tarzi;
- ❖ ijtimoiy me‘yorlar.

Oilaviy omillar

- ❖ ota-ona, o‘qituvchi, kattalar va tengdoshlari o‘rtasidagi muloqotdagi muammolar;
- ❖ bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e‘tiborning yetishmasligi;
- ❖ ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasida o‘zaro tushunishning yo‘qligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi;
- ❖ ota-onalarning o‘g‘il va qiz bolalarga nisbatan qo‘pol muomalada bolishlari;
- ❖ ko‘r-ko‘rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishi;
- ❖ oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni bartaraf etishga intilishning yo‘qligi;
- ❖ ota-onalarning beqaror his-tuyg‘ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi;
- ❖ farzand va ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarini o‘zaro mos tushmasligi va tubdan qarama-qarshi ekanligi;
- ❖ farzandlar nazarida ota-onalarning salbiy hulq-atvori, ularning ichish va chekishlari, giyohvandligi va axloqan buzuq qiliqlari;
- ❖ ota-onalarning muntazam ravishda o‘zaro janjallari;
- ❖ noto‘liq oilalar;
- ❖ bolalar qobiliyatining kattalar tomonidan salbiy baholanishi;
- ❖ ota-onalarning ma‘naviy axloqsizligi.

Maktab rahbarlarining ushbu muamumo bo'yicha maxsus pedagogik tizim - o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisidan iborat bo'gan dasturlarida har bir sinf o'quvchilarining oilalari to'grisida tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lishlari masalani hal qilishga qo'lyilgan dastlabki qadam bo'ladi. Buning uchun avvalo sinfdagi bolalarning hatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari, darslardagi, jamoat ishlariga ishtiroki, ko'chakuyda, ko'pchilik o'rtasida o'zini tutishi, o'qituvchilar tomonidan uyga berilgan vazifalarni bajarilish sifati va samarasi chuqur tahlil qilinib, har bir o'quvchi uchun ma'lumotlar banki tashkil etilishi lozim. Ana shundagina har bir o'quvchi tarbiyalanayotgan oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, kasbiy sohalaridagi holatiga obyektiv baho berish imkoniyati vujudga keladi. O'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai-nazaridan bola tarbiyasiga muhtoj oilalarni aniqlab olish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini talab qilishdan oldin muhtoj ota-onalar uchun maxsus tavsiyalarni ishlab chiqish, seminarlar, trening hamda konsultatsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada sinf rahbarlarining ota-onalarga beradigan yordamlari doimiy va malakali boiishi talab etiladi. Xulqi og'ishgan (deviant) bolalar bilan ishlash tajribasi ota-onalar, pedagoglar o'rtasida keng targ'ib etilishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonida tarbiyaviy muhit yaratish - shaxsni shakllantiruvchi tabiat hodisalarini anglash, ijtimoiy munosabatlar tizimi, tafakkur hamda turmush tarzi va shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonida har bir tarbiyalanuvchi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Qo'yilgan tarbiyaviy maqsadning mazmuni va vazifasiga ko'ra o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan qat'iy xulq-atvor me'yorlari, bilim, e'tiqod, ko'nikma, malaka va shaxsga xos axloqiy sifatlar hamda xususiyatlar har bir tarbiyalanuvchi tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash zaruriy shartdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyaning maqsadidan kelib chiqib, tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash, tarbiya psixologiyasi, ya'ni pedagogik psixologiyaning shaxsni aqliy, axloqiy hamda estetik jihatdan tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini inobatga olishi komil insonni tarbiyalashning asosiy mezoni ekanligini unutmaslik kerak. Komil insonni tarbiyalash uchun esa pedagogik tushkunlikka yo'l qo'yib bolmaydi, aksincha o'quvchilarda pedagogik ehtiyojni shakllantirish talab etiladi. o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro pedagogik hamkorlik, pedagogik qadriyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov IJTIMOIIY PEDAGOGIKA ASOSLARI

2. Nodira Egamberdiyeva . IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

3. M.J.MUT ALIPOVA Xalq pedagogikasi

4. Mavlonov R.A Voxidova N.X Ijtimoiy pedagogika